

27. Shaxmat bo'yicha turnirda Magnus 15 ta o'yin o'ynashi kerak. Turnir davomida, bir payt Magnus o'ynagan o'yinlarining yarimida g'alaba qozondi, uchdan birida yutqazdi va 2 ta o'yinni durrang hisobida yakunladi. Magnus yana nechta o'yin o'ynashi kerak?

- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 5 (E) 6

28. Vadimda 9 ta katak chizilgan bir kvadrat qog'oz bor. U qog'ozni avval rasmda ko'rsatilgandek – gorizontal chiziqlar bo'yicha bukladi. Keyin vertikal chiziqlar bo'ylab bukladi, shunda kulrang kvadrat ustki qismda ko'rinib turibdi.




Vadim 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni kataklarga shunday yozib chiqmoqdaki, qog'oz buklanganda sonlar o'sish tartibida joylashadi va 1 raqami kulrang kvadratda, ya'ni ustki qavatda bo'ladi. a , b va c harflar o'rnida qanday sonlar bo'lishi kerak?

- (A) $a = 6, b = 4, c = 8$ (B) $a = 4, b = 6, c = 8$ (C) $a = 5, b = 7, c = 9$
 (D) $a = 4, b = 5, c = 7$ (E) $a = 6, b = 4, c = 7$


29. Do'n to'plardan piramida yasamoqda.

Piramidaning asosi 3×3 to'pdan tashkil topgan kvadratdir. O'rta qism 2×2 to'pdan tashkil topgan, piramidaning uchida esa bitta to'p bor. Har ikki to'p bir-biriga tegayotgan nuqtada yelim bor. Piramidada umumiy nechta yelimli nuqta mavjud?



- (A) 20 (B) 24 (C) 28 (D) 32 (E) 36

30. Quyidagi xaritada bir nechta orollar va ular orasidagi ko'priklar tasvirlangan. Pochtachi har bir orolga faqat bir martadan tashrif buyurishi mumkin. U "start" deb belgilangan oroldan boshlab, "finish" deb belgilangan orolda sayohatini yakunlamoqchi. U endigina xarita markazidagi qora orolga yetib keldi. Pochtachi endi qaysi yo'nalishda davom etishi lozim?



- (A) Shimol (B) Sharq (C) Janub (D) G'arb (E) Pochtachiga mos yo'l yo'q



"KENGURU" xalqaro matematika tanlov-o'yin




Imtixon 1 soat 15 daqiqa davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mavjud (A-D). Belgilangan vazifaning doirasi va mazmuni uning to'liq bajarilishini talab qilmaydi; Vazifa savollariga maktab dasturidan tashqari savollar ham kiritilishi mumkin.

2020 yil 29 mart

5-6 sinflar

3- balli masalalar

1. Qaysi qism yetishmayapti?




- (A) (B) (C) (D) (E)

2. Amira, Atowndan Betownga ketayotganida 5 ta yo'l belgisini ko'rdi. Ulardan bittasi noto'g'ri. Qaysi biri?

- (A) (B) (C) (D) (E)

3. Katta kvadrat kichkina, kulrang va oq kvadratchalardan tashkil topgan. Agar ranglar o'zaro joylar bilan almashganda, katta kvadrat qanday ko'rinishga ega bo'lar edi?



- (A) (B) (C) (D) (E)

4. Mayk o`zining tug`ilgan kuniga 24 ta keks pishirmoqchi. Oltita keks pishirish uchun 2 ta tuxum kerak bo`ladi. Tuxumlar, sig`imi 6 ta tuxumga teng bo`lgan qutilarda sotiladi. Mayk nechta qutida tuxum sotib olishi kerak?

- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 8

5. Flora F harfining aksini rasmda ko`rsatilgan ikkita chiziqqa nisbatan chizmoqchi. Akslar qanday ko`rinishga ega?



- (A) (B) (C) (D) (E)

6. Kim ismli qizda bir-nechta, uzunligi 5 va 7 bo`lgan zanjir bor. U zanjirlarni birin-ketin ulab turli uzunlikdagi zanjirlar yasay oladi. Quyidagi uzunliklardan qaysi birini shu zanjirlar orqali hosil qilib bo`lmaydi?




- (A) 10 (B) 12 (C) 13 (D) 14 (E) 15

7. Mariyada 10 varaq qog`oz bor. U bir-nechta varaqni har birini 5 tadan bo`lakka kesdi. Shundan keyin, Mariya 22 bo`lak qog`ozga ega. U nechta varaq qog`ozni kesgan?


- (A) 3 (B) 2 (C) 6 (D) 7 (E) 8

8. Sindi quyidagi likopchanning turli sohalarini qizil, ko`k, yashil ranglar bilan bo`yab chiqmoqda. Qo`shni sohalar har xil rangga bo`yalishi kerak. U tashqi sohani ko`k rangga bo`yadi. Oxirida nechta soha ko`k rangda bo`ladi?



- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 5 (E) 6

23. Rasmda ko`rsatilganidek, uchta kichkina kvadrat bitta katta kvadratning ichiga chizilgan. So`roq belgisi turgan chiziq uzunligi nimaga teng?



- (A) 17 cm (B) 17,5 cm (C) 18 cm
(D) 18,5 cm (E) 19 cm

24. 9 ta jetonning bir tomoni qora, boshqa tomoni esa oq. Avval, faqat 4 ta jeton qora tomoni tepaga qaragan holda yotibdi.



Har o`yinda, sen 3 ta jetonni o`girishing kerak. Kamida nechta o`yindan keyin hamma jetonlar bir xil rangni ko`rsatadi?

- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 5

25. Quyidagi javoblardan qaysi biri uchinchi tarozini tenglashtiradi?



- (A) (B) (C)
(D) (E)



26. 10 ta odam, har biri bittadan muzqaymoq buyurdi. Muzqaymoqlarning 4 tasi vanilli, 3 tasi shokoladli, 2 tasi limonli va 1 tasi mangoli.



Muzqaymoqlar 4 ta soyabon, 3 ta olcha, 2 ta vafli va 1 ta shokolad bo`lagi bilan, har bir muzqaymoqqa bitta bezak qo`yilgan holda yasatilgan va hech qaysi ikki muzqaymoq o`xshash emas. Quyidagi kombinatsiyalarning qaysi biri buyurtmada mavjud emas?

- (A) Shokoladli muzqaymoq olcha bilan (B) Mangoli muzqaymoq soyabon bilan
(C) Vanilli muzqaymoq soyabon bilan (D) Limonli muzqaymoq vafli bilan
(E) Vanilli muzqaymoq shokolad bo`lagi bilan

20. Meri uchta to'g'ri to'rtburchak idishga bir xil miqdorda suyuqlik quydi. Idishlarga oldan qaraganda, ularning o'lchamlari bir xil tuyuladi, ammo uchta idishda ham suyuqlik turli balandlikka ko'tarilgan. Quyidagi qaysi rasmda, idishlarga tepadan qaralgandagi holat tasvirlangan?





5 - balli masalalar

21. Agar 3 xonali sonning o'rtasidagi raqami qolgan ikki raqam yig'indisidan katta bo'lsa, bu sonni chiroyli son deb ataymiz. Maksimum, ketma-ket kelgan shunday chiroyli sonlardan nechta?

- (A) 5 (B) 6 (C) 7 (D) 8 (E) 9


22. Rasmdagi obyektga tepadan qaralganda qanday ko'rinadi?



9. 4 ta savatda mos ravishda 1 ta, 4 ta, 6 ta va 9 ta olma bor. Barcha savatlarda bir xil miqdorda olma bo'lishi uchun nechta olmani savatdan savatga olib o'tish kerak?

- (A) 3 (B) 4 (C) 5 (D) 6 (E) 7


10. Parkda kuchuk va mushuk qalin chiziq bo'ylab yurishmoqda. Ular bir vaqtda, kuchuk P nuqtadan, mushuk esa Q nuqtadan yurishni boshlashdi. Agar kuchuk mushukdan 3 baravar tezroq yursa, ular qayerda uchrashadi?



- (A) A nuqtada (B) B nuqtada (C) C nuqtada (D) D nuqtada (E) E nuqtada

4 - balli masalalar

11. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar har bir aylanaga bittadan joylashtirildi. Ikki qo'shni aylanadagi sonlar yig'indisi, diametr bo'ylab qarama-qarshi turgan ikki qo'shni aylanadagi sonlar yig'indisiga teng bo'lishi kerak. Bir nechta sonlar aylanalarga allaqachon yozib chiqilgan. So'roq belgisi turgan aylanada qanday son bo'lishi kerak?



- (A) 3 (B) 4 (C) 6 (D) 7 (E) 8


12. Ko'rshapalak Elis g'ordan chiqib ketayotganida raqamli soat 20:20 ko'rsatar edi. Elis qaytib kelib, boshi pastda bo'lgan holda osilib soatga qarasa, u yana 20:20 ko'rdi. U qancha vaqt g'ordan tashqarida ov qilib uchgan?

- (A) 3 soat 28 daqiqa (B) 3 soat 40 daqiqa (C) 3 soat 42 daqiqa
(D) 4 soat 18 daqiqa (E) 5 soat 42 daqiqa


13. Elf bilan trol uchrashishdi. Trol doim yolg'on, elf esa doim rost gapiradi. Ular ikkalovi hozirgina quyidagi gaplardan birini aytishdi: qaysi birini?

- (A) Men rost gapiryapman
- (B) Sen rost gapiryapsan
- (C) Biz ikkimiz rost gapiryapmiz
- (D) Men doim yolg'on gapiraman
- (E) Ikkimizdan faqatgina birimiz rost gapiryapmiz

14. Merida bir xil o'lchamli 10 ta oq, 9 ta och kulrang va 8 ta to'q kulrang kubik bor. U hamma kubiklarini yelimlab, bitta katta kub yasadi. Quyidagi kublardan qaysi biri u yasagan kub bo'lishi mumkin?





15. Quyida X dan Y gacha bo'lgan yo'llar qora chiziq bilan berilgan. Ulardan qaysi biri eng qisqa?



16. Ota kenguru uchta farzandi bilan yashaydi. Ular har bir masalani ovoz berish orqali hal qilishadi. Oilaning har bir a'zosi, o'zi necha yoshda bo'lsa, shuncha miqdorda ovozlarga ega. Otaning yoshi 36 da, bolalarniki esa 13, 6 va 4 da. Shuning uchun ham ota doim g'olib bo'ladi. Agar hamma bola bir narsaga ovoz beradigan bo'lsa, ular necha yildan so'ng ovoz berishda yutadi?

- (A) 5
- (B) 6
- (C) 7
- (D) 13
- (E) 14


17. Jorjda shaklga ega ikkita teng sim bor. Quyidagi shakllardan qaysi birini Jorjodagi ikki simni birga qo'yish orqali hosil qilib bo'lmaydi?



18. Emi kubning tomonlariga quyidagi 6 ta stikerni yopishtirdi




U kubni do'stiga ko'rsatdi (rasmga qarang).



Sichqonga qarama-qarshi bo'lgan tomonda qaysi stiker bor?



19. Quyidagi sxema Ann, Beatris, Xloya, Diana, Elizabet va Fiona o'rtasidagi do'stlik aloqalarini bildiradi. Har bir son, bir qizni bildiradi va har bir chiziq ikki qiz o'rtasidagi do'stlikni bildiradi. Xloya, Diana va Fionaning har birida 4 tadan do'st bor. Xloya va Diana - Beatrisning dugonalari. Beatrisning boshqa dugonalari yo'q. Qaysi son Fionani bildiradi?



- (A) 2
- (B) 3
- (C) 4
- (D) 5
- (E) 6